

Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Luven universiteti hamkorligi haqida

Ayni kunlarda Tarix instituti direktori professor Azamat Ziyov va "Antropologiya va etnologiya" markazi boshlig'i professor Adham Ashirov Yevropa ittifoqining Erasmus+ loyihasi doirasida Luven katolik universitetida (Belgiya) ilmiy safarda bo'lib turibdi. 15-dekabr kuni Luven universiteti "Amaliy antropologiya" laboratoriyasida institutimiz xodimlari ilmiy ma'ruzalar o'qidi.



Professor Azamat Ziyov "O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari" va Adham Ashirov "O'zbeklar turmush tarzida islom dini va diniy an'analar" mavzusida ma'ruzalari qizg'in bahs-munozaralar asosida bo'lib o'tdi. Shuningdek, ilmiy safar jarayonida Tarix instituti va Luven katolik universitetini kelgusidagi ilmiy tadqiqot rejalari muhokama qilindi. Bir qator kelishuvlar amalga oshirildi.



0 10 cm